

**O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETENSIYALARINI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

G. Y. Qurbanova

BuxDPI o'qituvchisi

Temirova Kumushoy Sadreddinovna

BuxDPI magistranti

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ona tili o'qitishda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi tarkibiy komponentlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslanishi, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, o'z fikri mustaqil ifoda qilish, matn yaratishda ijodiy yondashishni rivojlantirish hamda nutq madaniyatini egallash bo'yicha tilshunos va metodist olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье представлено научно-теоретическое обоснование развития структурных компонентов речевой компетенции студентов при обучении родному языку, развития устной и письменной речи, самостоятельного выражения своего мнения, развития творческий подход к созданию текста, приобретение речевой культуры. Проанализированы научные взгляды лингвистов и ученых-методистов.

Abstract: In this article, the scientific-theoretical justification of the development of the structural components of students' speech competence in the teaching of the mother tongue, the development of oral and written speech, the independent expression of one's opinion, the development of a creative approach to text creation, and the acquisition of speech culture. The scientific views of linguists and Methodist scientists were analyzed.

Kalit so'zlar: nutq, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, o'quv topshirig'i, matn ustida ishlash.

Ключевые слова: речь, устная и письменная грамотность, разговорные навыки, говорение.компетенция, упражнение, задание, работа над текстом.

Keywords: speech, oral and written literacy, speaking skills, speaking competence, exercise, task, work on the text.

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o‘ziga xos o‘rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig‘ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan

to‘g‘ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g‘oya

mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me’yorlariga asoslanib so‘zlab berish

hamda yozish, o‘z nutqini og‘zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriyidir. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1,14],-deb e’tirof qilinishi ona tili o‘qitish metodikasi oldiga ta’lim jarayonining sub’ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma’lum fikrini ma’noli ifodalab, aniq, sermazmun so‘zlab yetkazadigan va diqqat bilan o‘qish qobiliyatlariga ega bo‘lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma’lumot va axborotlarni o‘qib kerakli xulosani chiqaradigan, o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo‘yadi.

Shuningdek, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida: “Ona tili mashg‘ulotlari nutq san’atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko‘nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan **kimga?**, **nimaga?**, **qachon?**, **qaerda?**, **qanday?** so‘zlashgacha bo‘lgan muomala-muloqot sirlarini o‘rgatadi; sharqona odob-andisha, go‘zal qiroat san’ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi”, - deyiladi.[2,49]

Milliy o‘quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o‘qitiladi. Ya’ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda kiritildi. Bu esa darsliklar bosqichida takrorlarni oldini oladi, bolani yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishida yordam beradi.

Ona tili darslarida matnni husnixat bilan ko‘chirish yoxud ot, fe’l, sifat so‘z turkumlarini topibgina qolmay, balki matnda nima haqida fikr yuritalayotgani, nimalarga aynan urg‘u berilgani borasidagi ijobjiy tahlillar hamda matnda so‘z

birikmalarining qay tartibda bog‘langani, qaysi gap bo‘laklari ishtirok etgan va bir-biriga bog‘lanish usullari singari nazariy bilimlar yonma-yon, chambarchaslikda olib borilishi lozim. Ona tili darslarida ijodiylikka ko‘proq urg‘u qaratish, bunda tasvirlar orqali hikoyalash bilan o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish mumkin.

Ta’limda moddiy ba’za, standart o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi, o‘quv-biluv markazida esa o‘quvchi bo‘lmog‘initaqozo etadi.

Ta’lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun eng, avvalo, bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta’lim tizimini texnik jihatdan ta’minalash, internetdan foydalanish imkoniyatlarni to‘la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan multimediali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol aloqalarini ta’minalash, multimediali o‘quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo‘ladi. Ta’limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki, natija maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, o‘quv- tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta’limning zamonaviy texnik vositalari hamda ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta’minalaydi.

Ona tili darslarida “Qoidani top”, “Quruvchilar”, “Kim zukko, kim tezkor”, “Noto‘g‘ri jumla”, “Qarsak chaldi”, “Hikoya”, “Boshqotirma”, “Tushunchalar tahlili”, “So‘z ichida so‘z”, “Quvnoq alifbo”, “Rasmli diktant”, “Boshqotirma”, “Ha yoki yo‘q”, “Lug‘at ishi”, “Baliq skleti” kabi didaktik o‘yin va ta’limiy

mashqlarlardan keng foydalanilsa, darslardagi samaradorlik yuqorilanib, ko‘zlangan natijaga erishish osonlashadi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida “Quruvchilar” o‘yiniga to‘xtalib o‘tsak. Bunda o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi va har bir guruhga “Zamonaviy uylar” qurish uchun “g‘ishtchalar” taqdim etiladi. “Tom” chalarga so‘z turkumlari nomlari yoziladi.O‘quvchilar so‘z turkumlariga doir so‘zlarni aralash tartibda berilgan g‘ishtchalardan topib, tegishli uychalarni qurishi kerak bo‘ladi. Albatta, bu o‘yinda bilim, tezkorlik va hamkorlik juda muhimdir. Muhimi o‘quvchilarning o‘sha fanga, mакtabga va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi yanada oshadi.

“Rasmlı diktant” o‘yini. Bunda o‘quvchilarga ma’lum bir mavzuga asoslangan rasmlar aralash tarzda beriladi hamda o‘quvchilardan talab qilinadigan vazifa rasmlar asosida ketma-ketlikka rioya qilgan holda mazmunli diktant tuzish hisoblanadi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ongli tafakkurqilish va eng muhimi – ularning nutqini rivojlantirishga zamin yaratiladi.

“Quvnoq alifbo” o‘yini. Bunda o‘quvchilar tartib bilan Alifboda keltirilgan harflarga ketma- ketlikni saqlagan holda so‘zlar aytadi. O‘yindan ko‘zlangan maqsad – Alifbo o‘quvchilarning doimiy yodida saqlanishidir. Masalan, ayiq-bola-dutor-eshik-fil-gerb-humo-ikki-jirafa ... va shu kabi davom ettiriladi.

Demak, ona tili darslarida o‘quvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida e’tibor qaratish maqsadga

muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адизова Нигора Бахтиёровна. Оқсоқол Бува, Бола ва Хон Образлари Қизиқмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciences/journal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). [Www.ejlss.indexedresearch.org](http://www.ejlss.indexedresearch.org) Volume 14, 2022 |
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
4. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN’S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)

5. Нигора Бахтиёрвна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
6. Jumayev, Ruzokul. "Sadreddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
7. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
8. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..
9. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadreddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.
10. Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO 'LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
11. Xamza X. БАДИЙ АСАРЛАРДА ЛОФНИНГ АЛОХИДА ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
12. Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.
13. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.
- BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.
14. Ҳайтов Ҳ. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.
15. Ҳайтов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

16. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚҮЙИШ САНЬЯТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
17. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
18. Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
19. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.